

THEORETICAL SIGNIFICANCE OF THE STUDY OF SPEECH SKILLS IN FUTURE OFFICERS

Kuchatov Khasan Bakhtiyor Oglu

Senior Lecturer of the Department of Material Supply at HX and MU

Abstract

The article is dedicated to highlighting the theoretical significance of studying speech mastery in future officers. The article allows for a review of several issues related to the content and organization of teaching disciplines related to speech culture in military educational institutions.

Keywords: oratory, educational institutions, speech technique, speech skills, oratory.

Introduction

BO'LAJAK OFITSERLARDA NUTQ MAHORATINI O'RGANISHNING NAZARIY AHAMIYATI

Sobirjonov Shuxratjon Saydullaevich

HX va MU Texnik ta'minot kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqola bo'lajak ofitserlarda nutq mahoratini o'rganishning nazariy ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan. Maqolada nutq madaniyati bilan bog'liq fanlarning harbiy ta'lim muassasalarida o'qitishning mazmuni va tashkil etilishiga oid bir qator masalalarni qayta ko'rib chiqishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: nutq mahorati, ta'lim muassasalari, nutq texnikasi, nutq ko'nikmalari, notiqlik san'ati.

Аннотация

Статья посвящена освещению теоретической значимости изучения речевого мастерства у будущих офицеров. Статья позволяет пересмотреть ряд вопросов, связанных с содержанием и организацией преподавания дисциплин, связанных с культурой речи, в военных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: ораторское мастерство, образовательные учреждения, речевая техника, речевые навыки, ораторское искусство.

Kirish

Zamon talablari ofitserdan muayyan aloqa standartlariga, harbiy xizmatchilarning sha'ni va qadr-qimmatiga hurmat va qonuniy munosabatlarga rioya qilishni talab qiladi. Nutq texnikasining yuqori darajasi, ofitser tayyorgarligining ajralmas qismidir. Ilmiy va uslubiy adabiyotlarda nutq madaniyati har qanday mutaxassislikni o'qitishda professional ahamiyatga ega bo'lishi kerakligi qat'iy tasdiqlaydi. Ushbu qoida nutq madaniyati bilan bog'liq fanlarning harbiy ta'lim muassasalarida o'qitishning mazmuni va tashkil etilishiga oid bir qator masalalarni qayta ko'rib chiqishga imkon beradi.

Asosiy qism

Harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarining nutq madaniyatini shakllantirish kommunikativ va nutq ko'nikmalarini hamda turli xil kommunikativ vaziyatlarda to'liq, uyg'un lingvistik matnlarni yaratish va tushunish ko'nikmalarini shakllantirishga asoslanadi.

Bo'lajak ofitserlarda madaniy nutq malakasini shakllantirish, ya'ni adabiy til, umumtil mezonlariga, mavjud qoidalarga to'la amal qilgan holda nutq tuzish malakasini shakllantirish nutq madaniyati va san'atining asosiy vazifalaridir. Shu bilan birga yaxshi nutqni baholash va targ'ib qilish ham uning vazifasi doirasiga kiradi. Fanning asosiy maqsadi, talabalarni nutq madaniyati rivojlanishining tarixi, notiqlik san'ati bilan tanishtirish, nutq madaniyatining shaxs ma'naviy dunyosini shakllanishida muhimligini e'tirof etishdan iborat.

Notiqlik san'ati, ritorika, nutq odobi, voizlik, madaniy mantiqiylik, ifodaviylik, nutq boyligi, nutq sofligi, til me'yori, leksikologiya va semasiologiya, logika, estetika, adabiyot nazariyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Nutq madaniyati umuminsoniy madaniyatning bir qismi bo'lib hisoblanadi. Tor ma'noda nutq madaniyati - til me'yorlarini egallamoq, ya'ni talaffuz, urg'u, so'z ishlatish, gap tuzish qonunlarini yaxshi bilmoq, shuningdek, tilning tasviriy vositalaridan har xil sharoitlarga mos va maqsadga muvofiq holda faydalana olish va ifodali o'qish madaniyatini egallash demakdir.

Nutq madaniyati atamasi adabiyotlarda asosan 2 xil:

1. Nutqning fazilatlarini yig'indisi.
2. Namunaviy nutq sirlarini egallash haqidagi ta'limot ma'nolarida ishlatiladi.

Madaniy nutqning fazilatlarini deganda, uning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliqi, ifodaviyligi, boyligi, sofligi kabilar tushuniladi.

Nutq madaniyati haqidagi ta'limot o'zining uzoq o'tmishiga ega. U ta'limot sifatida Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, unga qadar Misrda, Assuriyada, Vavilon va Hindiston mamlakatlarida paydo bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasidan ma'lum. U paytlarda har bir davlat arbobining notiq bo'lishi shart bo'lgan. Notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan baravar darajada ulug'langan. Ana shu ehtiyoj tufayli notiqlik nazariyasi yaratildi. Uning setseron, Demosfen, Kvintilian, Aristotel kabi nazariyotchilari yetishib chiqdi. Eramizning

335 yilida Aristotelning “Ritorika”si yaratildi. Unda notiq oldidagi eng muhim vazifalar belgilab berildi.

So‘z notiqligining katta nomoyandalaridan biri setseron “Notiq hakida”, “Notiq” “Brut” asarlari bilan notqlik san’ati nazariyasiga katta hissa qo‘shdi.

Rim notqlik maktabining yana bir buyuk vakili Mark Fabiy Kvintiliandir. U o‘zining “Notiq bilimi haqida” kitobida bilimdonlikni notqlikning birinchi sharti qilib qo‘yadi. U: “Notiklikka doir bilimni juda yoshlikdan o‘rgana borish, nutq tinglovchiga tushunarli bo‘lishi kerak” - , deydi. U: “Sen shunday so‘zlaginki, seni har bir kishi tushuna olsin”, - degan edi.

Qadimgi Yunoniston va Rimda madaniy nutq, notqlik nazariyasi rivojlantiriladi. Bu nazariya keyinchalik Yevropada nutq madaniyatiga bag‘ishlangan fanning maydonga kelishiga asos bo‘ldi.

Sharqda, jumladan Movarounnahrda ilmiy ijodning taraqqiyoti bilan, shuningdek, va‘zxonlik, “Qur‘on”ni targ‘ib qilish bilan birga so‘zning ahamiyati, ma‘nosi va undan maqsadga muvofiq foydalanish borasida qadimdan ko‘p yaxshi fikrlar aytilgan.

Va‘zxonlikning, balog‘at (chechanlik, notqlik) san‘atining rivojlanishi bilan nutq oldiga qo‘yilgan talablar mukammallashib bordi. Buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Koshg‘ariy, Zamahshariy, Abu Ya‘kub Sakkokiy tilga, lug‘atga, grammatika va mantiqshunoslikka bag‘ishlangan asarlar yozdilar yoki boshqa sohalarga doir asarlarida bu mavzuga aloqador fikrlar bildirdilar.

Qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri “Qobusnoma”da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz gaplar aytilgan bo‘lib, ular hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagandir. “Qobusnoma” Kaykovus tomonidan 1082-83 yillarda yaratilgan bo‘lib, 44-bobdan iborat. Uning 6-7 boblari so‘z odobi haqidadir. Asar muallifining farzandiga qilgan nasixatlari sifatida yozilgandir. U farzandini yoqimli, muloyim, o‘rinli so‘zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi: "So‘zni o‘z joyida so‘zla, joyida aytilmagan so‘z, agar u yaxshi so‘z bo‘lsa ham yomon ko‘rinadi." Kishi suxandon va notiq bo‘lishi lozim... Xalq oldida gapirganda so‘zing go‘zal bo‘lsin, bu so‘zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening so‘z bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so‘z orqali biladilar.

XII-XIII asr mutafakkirlari Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiylar ham o‘z asarlarida so‘zni qadri, undan foydalanish, kam so‘zlab ko‘p ma‘no yuklash, ravshan fikrlash kabi masalalar yuzasidan ibratli fikr bildirganlar.

O‘zbek adabiy tilining asoschisi A. Navoiy o‘z ijodi bilan turkiy tilning boyliklarini namoyon etdi. A.Navoiyning “Muhokamatul lug‘atayn”, “Mahbubul qulub”, “Nazmul-javohir” asarlari o‘zbek tilida nutq tuzishning go‘zal namunalari bo‘lishi bilan birga, uning yuksalishiga katta hissa qo‘shdi. Navoiy “Mahbubul qulub”da shunday deydi:” Tilga iqtidorlig - hakimi xiradmand: so‘zga ixtiyorsiz-layni najand. Tilki fasih va dilynazir bo‘lgay, xubrok bo‘lgay agar ko‘ngul bila bir bo‘lgay”.

Tiliga kuchi yetadigan kishi aql podshosidir: soʻzga ahamiyat bermaydigan kishi laʼnatlangan, past kishidir. Til goʻzal dillarni olovlantiruvchi boʻlishi bilan birga dilidagini aks ettirsa, yanada yaxshiroq boʻladi. Ravshanki, bunda Navoiy til deganda nutqni nazarda tutgan.

Oʻzbek badiiy nutqi tarixida Z. M. Bobur alohida oʻrin tutadi. Shoirning nazmi va “Boburnoma”si nutqning goʻzal namunalaridir, “Boburnoma”ni XV- asrning eng yaxshi prozaik asari deb tan olishlari bejiz emas, albatta. Bobur oʻzi hammabop yozish bilan birga, boshqalarga ham shunday ish tutishni maslahat beradi. Jumladan, oʻz oʻgʻli Xumoyunga yozgan bir xatida birovga yuboriladigan maktubni muallifning oʻzi bir necha bor oʻqib koʻrishi, uning ravonligiga, soʻzlarning koʻzda tutilgan maʼnoni toʻgʻri aks ettirayotganligiga ishonch hosil qilgandan soʻng joʻnatishga chaqiradi.

Yuqoridagilardan maʼlum boʻladiki, Sharq mutafakkirlari notiq oldiga tilni puxta oʻrganish, uning lugʻaviy boyligi va grammatikasini puxta egallash, mantiqli soʻzlashni egallash, goʻzal, taʼsirchan nutq tuza bilish, til boyliklarini maqsadga muvofiq holda oʻrinli ishlatish vazifalarini oldingi ringa qoʻyadilar.

Oʻzbek demokratik adabiyoti vakillari, ilgʻor yozuvchilar xalq hayotini, adolatsiz lekin kengroq tasvirlash jarayonida oʻz asarlarining tilini xalq tiliga yaqinlashtirishga harakat qildilar. Bu adabiy tilga yangi meʼyoriy hodisalarning kirib kelishiga olib keldi. Bu borada, ayniqsa, Muqimiy, Furqat, keyinroq Hamza, A.Qodiriy, A.Avloniy, Mirmuhsin Mirmuhammedov, Fitrat, Choʻlpon, Soʻfizoda kabilarning xizmatlari kattadir.

Til obyektiv qonunlarga muvofiq va muvaffaqiyatli rivojlanadi uning rivojlanishiga faqat tashuvchilarning oʻzlari taʼsir koʻrsatishi mumkin. Ona tiliga qiziqish bu maqsadga erishishga intilayotgan millionlab odamlarning eʼtirof etilgan hayotiy ehtiyojiga aylanib bormoqda.

Nutqning aktyorlik faoliyati tinglovchilar uchun uning informativligi, ongliligi, dolzarbligi, ekspressivligi va ahamiyati, shuningdek ogʻzaki boʻlmagan xatti-harakatlar bilan uygʻun kombinatsiyasi orqali namoyon boʻladi. Nutq tinglovchilar tomonidan xushyoqish, maʼqullash va hurmatni uygʻotgandagina samarali boʻladi. Soʻzlovchining tashqi qiyofasiga, taʼsir etish va ishontirish tamoyillari va usullariga, ogʻzaki aloqa jarayonida axloqiy axloq normalariga alohida eʼtibor - bularning barchasi ritorikada birlashtirilgan.

A. Navoiy ijod etgan XV- asr oʻzbek adabiy tilining oʻz meʼyorlari mavjud edi, ularga koʻra tilning fonetikasi, grammatikasi va stilistikasidan foydalanishning oʻz meʼyori bor edi. U davr adabiy tilining oʻz talaffuz meʼyorlari ham boʻlgan. Bu adabiy meʼyorlar jiddiy oʻzgarishlarga uchramasdan badiiy adabiyot tilida XIX asr oxirlarigacha amal qilib keldi.

Oʻzbek demokratik adabiyoti vakillari, ilgʻor yozuvchilar xalq hayotini, adolatsiz lekin kengroq tasvirlash jarayonida oʻz asarlarining tilini xalq tiliga yaqinlashtirishga harakat qildilar. Bu adabiy tilga yangi meʼyoriy hodisalarning kirib kelishiga olib keldi. Bu borada, ayniqsa, Muqimiy, Furqat, keyinroq Hamza, A.Qodiriy, A.Avloniy, Mirmuhsin Mirmuhammedov, Fitrat, Choʻlpon, Soʻfizoda kabilarning xizmatlari kattadir.

Bizning davrimizda o'zbek adabiy tili me'yorlari jiddiy yangilandi: so'z qo'llash, grammatika, talaffuz me'yorlari xalq jonli tili xususiyatlari asosida o'zgardi. Nutq madaniyati fani tilning hamma sohalari bo'yicha adabiy til me'yorlarini tadqiq qilib boradi. Eng maqbul hodisalarning adabiy me'yor sifatida mustahkamlanishi uchun tavsiyalar beradi. Biroq bu fan adabiy me'yorlar yaratmaydi, ba'zi bir hodisalarni majburan me'yorga kiritmaydi. Balki o'zbek milliy adabiy tili faoliyatini, uning rivojlanishini kuzatib boradi, obyektiv qonunlarni kashf etadi, yangi tavsiyalar beradi xolos.

Xulosa

Har qanday harbiy pedagog, agar notiqlik mahoratini yaxshi egallagan bo'lsa, so'z qudratidan foydalanib kursantlarni o'ziga qarata oladigan haqiqiy ustozga aylanadi. Til vositalarini bilish nutqni tinglaganda, ularning ma'nosi va vazifasini anglashda ko'rinadi, ya'ni tinglovchi tinglagan va o'qigan narsalarini tushunadi. Bunday shaxs o'zgalar nutqini yaxshi tushunadi. Ammo o'zining nutqi tilning rang-barang imkoniyatlaridan mahrum va qashshoq bo'ladi. Ikkinchi bosqich til taqdim etgan imkoniyatlarning katta qismini chuqur o'zlashtirishdan, ularni nutq tezkorligiga aylantirib olishidan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidov U. Boshqaruv va notiqlik san'ati. //O'quv qo'llanma. –T.: G'afur G'ulom, 2011. –176 b.
2. Sitseron. Notiqlik haqida. U.Otajon tarjimasi. . – T.:, Yangi asr avlodi. 2003. –16 b.
3. Kaykovus. Qobusnoma. – T.:, Adolat, 2009. – 67 b.
4. Tashanov A. Harbiy xizmatchi nutq madaniyati / o'quv qo'llanma. – T.: O'R QK Akademiyasi, 2020. – 157 b.
5. www.ziyonet.uz (2026-yil 22-26.04.da murojaat qilingan)
6. www.pedagog.uz (2026-yil 22.04.da murojaat qilingan)